

SOMATIK IBORALAR ASOSIDA IFODALANGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING CHET TILI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Tangriyev V.A.¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi somatik iboralar hamda ular bilan bog'liq paralingvistik vositalarning (imo-ishora, mimika, ohang va h.k.) kommunikativ ahamiyati tahlil qilinadi. Somatik iboralar va noverbal xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash va o'rgatishning chet tili o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini, tinglab tushunish va nutqiy tabiiylikni oshirishdagi, shuningdek, madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olishdagi roli yoritiladi. Til o'qitish jarayoniga ushbu elementlarni integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: paralingvistika, somatik iboralar, kinetik vositalar, noverbal kommunikatsiya, chet tili o'qitish, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot.

Kirish

Samarali insonga xos bo'lgan muloqot faqatgina verbal (og'zaki) vositalar bilan cheklanmaydi. Nutq jarayonida so'zlar bilan bir qatorda, ularga hamroh bo'luvchi noverbal signallar ham axborot almashinuvida, hissiyotlarni ifodalashda va suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Chet tilini o'rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani to'liq egallash uchun tilning sof lingvistik birliklaridan tashqari, unga yondosh bo'lgan madaniy va paralingvistik xususiyatlarni ham o'zlashtirish talab etiladi.

Verbal nutqni to'ldiruvchi va unga qo'shimcha ma'no qirralarini yuklovchi muhim hodisa paralingvistik vositalar sanaladi. Ular nutqiy jarayonga hamroh bo'luvchi noverbal elementlar – imo-ishoralar (jestlar), mimika (yuz ifodalari), tana holati (poza), vokalik xususiyatlar (ovoz ohangi, tembri, balandligi, nutq sur'ati), qarash (ko'z kontakti) va boshqalarni o'z ichiga oladi [Knapp, M. L., & Hall, J. A. 2010]. Ushbu vositalar muloqotda turli vazifalarni: hissiyotlarni ifodalash, ma'noni kuchaytirish yoki o'zgartirish, suhbat navbatini boshqarish kabilarni bajaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – somatik iboralar orqali ifodalanadigan yoki ular bilan birga qo'llaniladigan paralingvistik vositalarning chet tili o'qitish jarayonidagi roli va ahamiyatini tahlil qilish hamda tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Nazariy asoslar

Tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish uchun somatik frazeologiya, paralingvistika va til-madaniyat munosabatlariga oid nazariy qarashlarga murojaat qilish lozim. Somatik frazeologiya lingvistikaning ko'plab yo'nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik uchun muhim tadqiqot obyektidir. Tana a'zolari nomlarining universal leksik birlik bo'lishiga qaramay, ular ishtirokidagi frazeologik birliklar ko'pincha milliy-madaniy o'ziga xoslikni ifodalaydi. Lakoff & Johnson [Lakoff, G., & Johnson, M. 1980] ta'kidlaganidek, biz ko'plab mavhum tushunchalarni o'z tanamiz va uning tajribalari orqali konseptual metaforalar yordamida idrok etamiz va ifodalaymiz. Somatik iboralarining semantik, strukturaviy, etimologik va lingvomadaniy jihatlari ham xorijiy [Dobrovol'skij, D., & Piirainen, E. 2005], ham o'zbek tilshunosligida [Tangriyev, V. 2024] ma'lum darajada o'rganilgan.

Paralingvistika sohasidagi tadqiqotlar noverbal kommunikatsiyaning muloqotdagi ulkan rolini ochib bergan. Tadqiqotlarga ko'ra, axborotning sezilarli qismi (ba'zi manbalarda 60% dan ortiq) aynan noverbal kanallar orqali uzatiladi [Mehravian, A. 1971]. Avvalgi tadqiqot ishlarimizda olimlarning fikriga tayangan holda paralingvistik vositalarni uch asosiy turga – fonatsion (ovozga oid: intonatsiya, pauza, ohang), kinetik (tana tiliga oid: mimika, jestlar) va grafik (vizual: yozuv uslubi, tinish belgilari) turlarga ajratgan edik [Tangriyev, V. A. 2024]. R. Birdwhistell [Birdwhistell, R. L. 1970] "kinesika" tushunchasini fanga kiritib, tana harakatlarining til kabi tizimli kommunikativ kod ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, P. Ekman [Ekman, P., & Friesen, W. V. 1971] yuz ifodalari orqali aks etuvchi asosiy hissiyotlarning ko'plab madaniyatlarda universalligini isbotlagan, ammo ularning namoyon bo'lishini madaniy qoidalar boshqarishini ham ta'kidlagan.

Bu esa bevosita til va madaniyatning uzviy bog'liqligi masalasiga olib keladi. Til madaniyatni aks ettiradi, saqlaydi va avloddan-avlodga uzatadi [Knapp, M. L., & Hall, J. A. 2010]. Somatik iboralar va paralingvistik vositalar bu bog'liqlikning yorqin namunalaridir. Qayd etilganidek, nutq sur'ati kabi fonatsion jihatlari ham

¹ Tangriyev Valisher Azamovich, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

madaniy farqlanadi: ingliz tilida tez gapirish ishonchni bildirsa, o'zbek tilida sekinroq sur'at hurmat belgisi bo'lishi mumkin. Shuningdek, ingliz tilidagi laringalizatsiya (ovoz o'zgarishi) kabi vositalar o'zbek madaniyatida kamroq kuzatiladi [Tangriyev, V. A. 2024]. Turli madaniyatlarda jestlar, mimika, ko'z kontakti qoidalari, shaxslararo masofa ham turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu sababli, chet tilini o'rganishda til birliklari bilan birga, o'sha til va madaniyatga xos noverbal kodlarni ham o'zlashtirish madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olish va samarali muloqot uchun zarurdir [Byram, M. 1997].

Asosiy qism

Somatik iboralar va ularga hamroh bo'luvchi paralingvistik vositalarni birgalikda o'rganish chet tili o'qitish samaradorligiga bir necha muhim yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shulardan biri, kommunikativ kompetensiyani kompleks rivojlantirishdir. Zamonaviy metodika kommunikativ kompetensiyani targ'ib qiladi, bu esa nafaqat lingvistik bilimlar, balki sotsiolingvistik, diskursiv va strategik layoqatlarni ham qamrab oladi [Canale, M., & Swain, M. 1980]. Real muloqot ko'p qirrali (multimodal) bo'lib, unda kinetik birliklar, ya'ni tana harakatlari va imo-ishoralar, ma'no yetkazishda muhim o'rin tutadi [Tangriyev, V. A. 2024]. Somatik iboralarni tegishli paralingvistik vositalarsiz qo'llash nutqning sun'iylikiga olib kelishi mumkin. Demak, bu elementlarni integratsiyalashgan holda o'rgatish o'quvchilarning umumiy muloqot mahoratini, nutqining tabiiyligi va ifodaliligini oshiradi.

Chet tili o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Nutqni tushunish faqat so'zlarni anglash emas, balki so'zlovchining ohangi, yuz ifodasi, jestlari kabi noverbal signallarni ham "o'qish"ni talab qiladi [Mehravian, A. 1971]. Ayniqsa, ko'chma ma'noli somatik iboralarning ma'nosini anglashda paralingvistik vositalar muhim kalit bo'lishi mumkin. Masalan, suhbatdoshning istehzoli ohangi yoki tabassumi "You are pulling my leg" (Hazillashyapsan) iborasining hazil ekanligini tushunishga yordam beradi. O'quvchilarni paralingvistik belgilarni anglashga o'rgatish ularning tinglab tushunish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shu bilan birgalikda, gapirish ko'nikmasini rivojlantirish chet tilida muloqot qilayotgan til o'rganuvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Bunda nutqning sun'iy eshtilishi so'zlovchining o'ziga ham g'alati tuyilishi mumkin. Somatik iboralar nutqni boyitish vositasi bo'lsa, ularni o'rinli paralingvistik vositalar bilan birga qo'llash nutqqa jonlilik va tabiiylik bag'ishlaydi. Masalan, o'zbek tilida "og'zim qulog'imda" iborasini katta tabassum bilan aytish yoki ingliz tilida "I have butterflies in my stomach" (hayajondaman) deganda biroz betoqatlik yoki xavotir alomatlarini ko'rsatish nutqning samimiyligi va ishonchligini oshiradi.

1. Til va madaniyat bog'liqligi tufayli somatik iboralar va paralingvistik vositalar turli madaniyatlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Avvalgi tadqiqotlarimizda ta'kidlaganimizdek, ingliz tilida rozilikni bildiruvchi "bosh iring'ash" o'zbek madaniyatida boshqa ma'no anglatishi yoki yoshi kattalar bilan suhbatda tana harakatlarini cheklash o'zbek madaniyatidagi hurmat belgisi bo'lsa, ingliz madaniyatida ochiqroq ifodalilik kutilishi mumkin [Tangriyev, V. A. 2024]. Bu kabi madaniy farqlarni bilmaslik noqulay yoki kulgili holatlarga olib kelishi tayin. O'quvchilarga bu farqlarni tushuntirish va qiyosiy tahlil qilish ularning madaniyatlararo kompetentligini rivojlantiradi [Birdwhistell, R. L. 1970].

Paralingvistik vositalar iboraning ma'nosini shunchaki to'ldirmaydi, balki uni kuchaytirishi (mas., "It cost an arm and a leg" – 'juda qimmatga tushdi' deganda ko'zni katta ochish), unga qo'shimcha emotsional bo'yoq berishi yoki hatto ma'noni butunlay o'zgartirishi mumkin (mas., kinoya yoki sarkazm). "Uning qo'li gul" iborasini samimiy ohangda yoki kinoya bilan aytish mutlaqo boshqa ma'nolarni anglatadi. Bu nozikliklarni anglash o'quvchilarga murakkabroq muloqot vaziyatlarini boshqarish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida, somatik iboralar va paralingvistik vositalarni chet tili darslariga samarali integratsiya qilish uchun quyidagi metodik yondashuvlarni qo'llash mumkin:

1. Interaktiv va vizual usullardan foydalanish:

- Rasmlar, fleshkartalar – iborani yoki unga mos paralingvistik holatni tasvirlovchi vositalar.

- Video lavhalar – autentik materiallar (filmlar, intervyular)dan foydalanish [Ekman, P., & Friesen, W. V. 1971]. O'quvchilar personajlarning iboralarni qanday noverbal belgilar bilan ishlatayotganini kuzatadi va tahlil qiladi.

- Rolli o'yinlar – dialoglarni sahnalashtirish orqali ibora va paralingvistikani amalda qo'llash.

- Mimika va pantomime – "Topag'on" o'yini kabi mashqlar orqali iborani noverbal ifodalash va topish.

2. Bog'liqlikni anglatuvchi maxsus topshiriqlar:

- Video tahlili – personajning nutqi, iborasi va noverbal harakatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan savol-javoblar.

- Moslashtirish mashqlari – ibora va uning paralingvistik tavsifi/rasmini juftlash.

- Kontekstual taxmin – matnda iborani yoki paralingvistik holatni kontekstga qarab to'ldirish.

3. Qiyosiy tahlildan foydalanish [Knapp, M. L., & Hall, J. A. 2010]:

• Ma'no va shakl qiyosi bu – o'xshash ma'noli iboralarning leksik-semantik va obrazli farqlarini muhokama qilish.

• Paralingvistik muvofiqlikni qiyoslash esa bir xil ma'nodagi iboralarga hamroh bo'luvchi jest yoki mimikaning madaniy farqlarini aniqlash.

Bog'liqlikni aniqroq ko'rsatish uchun Ingliz tilidagi quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz mumkin: To get cold feet – Biror ishga jur'ati yetmaslik, qo'rqib qolish ma'nosida kelib, ko'pincha xavotir, ikkilanish yoki betoqatlikni aks ettiruvchi paralingvistik belgilar bilan birga keladi: nigohni olib qochish, barmoqlarni g'ijimlash, o'rindiqa bemalol o'tira olmaslik. To be on cloud nine – Juda xursand bo'lish, boshi osmonga yetish ma'nosida odatda tabassum, ko'zlarning porlashi, energiyaga to'la, yengil tana holati bilan ifodalanadi. To give someone the cold shoulder iborasi esa, salom bermay ketish, sovuq munosabatda bo'lish degan ma'nosda nigohni olib qochish, yuzini teskari burish, qisqa va keskin javob berish kabi noverbal xatti-harakatlar bilan kuzatiladi.

O'zbek tilida tilida ham yuqoridagi holatlarni ifodalovchi iboralar mavjud bo'lib: Ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – qaysarlik qilish, o'z fikrida qattiq turib olmoq degan ma'noda qat'iy yoki o'jar yuz ifodasi, balki peshonani tirishtirish, jarangdor va keskin ovoz ohangi bilan ifodalanishi mumkin. Burni ko'tarilgan iborasi kekkaygan, manman degan ma'noda boshni baland tutish, mensimay qarash, lablarni qimtitish yoki past nazar bilan qarash kabi paralingvistik belgilar bilan assotsiatsiyalanishi mumkin. Shuningdek, Yuragiga g'ulg'ula tushdi – Xavotirga tushdi, bezovtalandi degan ma'noni anglatadi. Bu ko'pincha yuzdagi xavotir ifodasi, qoshlarni chimirish, lab tishlash, barmoqlarni g'ijimlash yoki joyida tinch turolmaslik kabi holatlar bilan namoyon bo'ladi. Bu misollar somatik iboralarni ularning potentsial paralingvistik jihatlar bilan birga o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa

Ushbu maqolada somatik iboralar va ular bilan bog'liq paralingvistik vositalarning chet tilini o'qitishdagi muhim roli tahlil qilindi. Xulosalar shuni ko'rsatadiki, bu ikki hodisaning o'zaro integratsiyasini o'rgatish til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirish, tinglab tushunish, nutqiy ravonlik va tabiiylikni oshirish hamda madaniyatlararo samarali muloqotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotimiz asosida keyingi e'tibor berishimiz kerak bo'lgan masalalarni quyidagilar deb hisobladik: darsliklardagi iboralarni paralingvistik jihatlar bilan birga o'rgatish; autentik video materiallardan keng foydalanish; madaniy farqlarga alohida e'tibor qaratish; o'quvchilarni iboralarni tegishli noverbal vositalar bilan birga qo'llashga undovchi mashq va topshiriqlardan foydalanish.

Umuman olganda, somatik iboralar va paralingvistik vositalarni bir butunlikda o'rganish chet tilini jonli, dinamik va madaniyat bilan chambarchas bog'liq muloqot tizimi sifatida egallashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and context: Essays on body motion communication*. University of Pennsylvania Press.
- [2]. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
- [3]. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/1.1.1>
- [4]. Dobrovol'skij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives*. Elsevier.
- [5]. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1971). Constants across cultures in the face and emotion. *Journal of Personality and Social Psychology*, 17(2), 124–129. <https://doi.org/10.1037/h0030377>
- [6]. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. *Language Teaching*, 40(2), 97–118. <https://doi.org/10.1017/S0261444807004144>
- [7]. Knapp, M. L., & Hall, J. A. (2010). *Nonverbal communication in human interaction* (7th ed.). Wadsworth Cengage Learning.
- [8]. Ashurov, S., & Mukhiddinova, S. (2024, November). The Harmony of the Concepts of Time and Language. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 30–34).
- [9]. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
- [10]. Mehrabian, A. (1971). *Silent messages*. Wadsworth.
- [11]. Tangriyev, V. (2024). The role of kinetic units in multimodal communication. *Tamaddun nuri jurnali*, 11(62), 177–179
- [12]. Tangriyev, V. A. (2024). Somatic features and cultural nuances in paralinguistic communication. In *International Conference on Language Education: Modern Experiences and Future Prospects*. pp. 315–318. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14205706>

[13]. Nizomiddinovich, E. M., & Azamatovna, M. D. (2025, January). *How to improve students' reading comprehension through matching headings in the cefr test. In international conference on interdisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 13-20).*

[14]. Ashurov, S., & Suvonova, N. (2023). *Humorous phraseologisms-as a tool offunny assessment of real events (in French material). In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 10024). EDP Sciences.*

[15]. Sobirjanovna, M. K. (2025). *How to use english songs properly in teaching english. Journal of international scientific research, 2(4), 351-356*